


## VI. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 8 036 ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi (2022- yilning shu davriga nisbatan 9,0 %ga kamdir).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

*2023- yil yanvar-dekabr holatiga, jamiga nisbatan %da*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 3 335 ta (jami tashkil etilgan subyektlarning 41,5 %), sanoatda 1 710 ta (21,3 %), xizmatlar sohasida 1 837 ta (22,9 %), qurilishda 468 ta (5,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 686 (8,5 %), tashkil etilgan.

2023- yilning yanvar-dekabr holatiga kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) soni 55 187 ta (o'tgan yilning shu davrida 49 032 ta)ni tashkil etdi. Shundan faoliyat ko'rsatayotganlari esa 36 238 tani (jamiga nisbatan 65,7 %) tashkil etdi.

**Farg‘ona viloyatida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar birklikda**

	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>Farqi (+;-)</i>
<b>Farg‘ona viloyati</b>	<b>8 828</b>	<b>8 036</b>	<b>-792</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	1 323	1 436	113
Qo‘qon	876	788	-88
Quvasoy	334	455	121
Marg‘ilon	617	574	-43
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	428	368	-60
Qo‘shtepa	334	338	4
Bag‘dod	422	302	- 120
Buvayda	465	350	-115
Beshariq	428	276	-152
Quva	368	420	52
Uchko‘prik	352	310	-42
Rishton	382	326	-56
So‘x	214	239	25
Toshloq	505	464	-41
O‘zbekiston	444	295	-149
Farg‘ona	362	277	-85
Dang‘ara	455	342	-113
Furqat	257	233	-24
Yozyovon	212	243	31

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan jami kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi**  
*2023- yil yanvar-dekabr holatiga, jamiga nisbatan, %da*




2023- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo‘yicha eng ko‘p Farg‘ona shahrida - 17,8 %, Qo‘qon shahrida - 9,8 %, Marg‘ilon shahrida - 7,1%, Toshloq tumanida - 5,8%, Quvasoy shahrida - 5,6 %, Quva tumanida 5,2 %, Oltiariq tumanida - 4,6 %, Buvayda tumanida - 4,3 %ni tashkil etgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

birklikda


	2022- yil yanvar- dekabr	2023- yil yanvar- dekabr	Farqi (+;-)
<b>Jami</b>	<b>8 828</b>	<b>8 036</b>	<b>-792</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	534	686	152
Sanoat	1 965	1 710	-255
Qurilish	541	468	-73
Savdo	3 839	3 335	-504
Tashish va saqlash	313	313	0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	595	468	-127
Axborot va aloqa	209	298	89
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	185	154	-31
Boshqa faoliyat turlari	647	604	-43

2023- yilning yanvar- dekabr oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdoda – 3 335 ta, shuningdek :




2023-yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 9,0 birlikni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Farg‘ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni <sup>1)</sup>**  
(har 1000 aholiga, birlikda).



2023- yilning yanvar-dekabr oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 18,4 birlik, Quvasoy shahrida 14,0 birlik, Qo'qon shahrida 12,9 birlik, Marg'ilon shahrida 12,7 birlik, So'x tumanida 12,0 birlik, Dang'ara tumanida 9,9 birlik, Oltiariq tumanida 8,8 birlikni tashkil etdi. Beshariq tumanida 5,1 birlikka teng bo'lib, ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib qolmoqda.

**yanvar-dekabr oyida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni<sup>1)</sup>**  
(har 1 000 aholiga, birlikda).




<sup>1)</sup> Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olgan holda)

<sup>1)</sup> Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olgan holda)

## Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini ko'payish dinamikasi, %da

**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 69,5 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar- dekabr oyida 68,9%).**

**YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining kanoyabrishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.**




## 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>Farqi (+;-)</i>
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>46 350</b>	<b>36 238</b>	<b>-10 112</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>8 828</b>	<b>8 036</b>	<b>-792</b>
<i>Kichik tadbirkorlik ulushlari:</i>				
YaHM	%	68,9	69,5	0,6
Sanoat	%	44,1	49,2	5,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	95,3	95,1	-0,2
Investitsiya	%	62,0	64,3	2,3
Qurilish	%	80,4	76,7	-3,7
Chakana savdo	%	92,9	92,4	-0,5
Xizmatlar	%	65,8	66,9	1,1
Yuk tashish	%	93,4	84,5	-8,9
Yuk aylanmasi	%	91,8	94,6	2,8
Yo'lovchi tashish	%	95,8	96,1	0,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,0	97,4	0,4
Eksport	%	51,7	68,4	16,7
Import	%	73,2	81,5	8,3

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

(yanvar-dekabr, %da)



## Hududlar bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushlari


(2023- yil yanvar-dekabr holatiga, jamiga nisbatan, % da)

Hududlar	Sanoat		Qishloq,o'rmon va baliqchilik xo'jaligi		Investitsiyalar		Qurilish	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil
Viloyat	44,1	49,2	95,3	95,1	62,0	64,3	80,4	76,7
shaharlar:								
Farg'ona	22,6	28,5	88,7	88,9	34,5	42,9	79,9	82,7
Qo'qon	32,3	44,8	99,2	93,7	82,2	74,9	85,5	86,5
Quvasoy	35,5	37,0	99,5	90,5	67,5	80,8	75,0	89,6
Marg'ilon	96,8	96,8	99,7	99,4	76,5	78,0	39,9	43,8
tumanlar:								
Oltiariq	48,8	58,2	93,9	95,5	78,6	73,1	99,7	99,8
Qo'shtepa	26,9	49,9	96,5	97,3	93,9	94,6	67,0	63,1
Bag'dod	76,9	66,8	95,9	96,9	71,4	70,6	94,3	92,5
Buvayda	78,0	64,4	99,9	99,8	86,4	92,4	99,7	93,0
Beshariq	100,0	71,7	96,8	96,1	57,0	65,7	93,5	94,9
Quva	32,0	51,6	98,4	97,8	59,0	55,2	99,4	69,2
Uchko'prik	85,1	68,3	99,6	99,5	95,5	94,3	99,0	99,8
Rishton	51,9	57,3	97,3	97,5	35,1	30,2	99,0	99,7
So'x	100,0	100,0	86,9	90,4	22,7	40,3	85,8	99,4
Toshloq	13,2	38,6	96,8	96,6	68,4	80,0	99,5	82,3
O'zbekiston	54,6	55,0	98,8	98,5	86,8	75,5	99,3	48,9
Farg'ona	25,0	28,4	74,4	75,7	31,2	15,2	93,6	73,8
Dang'ara	69,3	79,5	98,9	98,6	63,1	62,3	57,6	45,0
Furqat	96,4	100,0	99,8	99,4	68,5	81,7	99,4	99,7
Yozyovon	100,0	100,0	96,9	97,0	46,7	34,8	73,3	87,6

davomi


	Xizmatlar		Savdo		Eksport	
	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil
Viloyat	65,8	66,9	92,9	92,4	51,7	68,4
<i>shaharlar:</i>						
Farg‘ona	44,4	46,5	83,7	85,9	48,1	56,3
Qo‘qon	60,8	61,3	94,5	93,4	17,4	56,8
Quvasoy	81,7	82,6	90,4	96,6	68,1	84,8
Marg‘ilon	84,0	84,9	98,5	98,3	95,9	99,7
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	86,2	88,8	94,0	94,5	96,4	97,1
Qo‘shtepa	86,5	87,0	99,2	98,9	12,0	61,4
Bag‘dod	80,2	80,6	97,8	97,1	95,5	65,2
Buvayda	60,9	59,9	96,6	97,6	71,9	71,4
Beshariq	74,6	73,0	97,4	97,4	100,0	59,1
Quva	72,2	72,9	97,7	98,2	56,4	60,7
Uchko‘prik	72,9	78,7	74,4	66,9	99,1	87,3
Rishton	76,5	75,4	96,9	96,9	61,3	47,9
So‘x	86,3	87,5	99,0	98,9	100,0	100,0
Toshloq	76,5	77,9	98,5	98,4	12,6	77,0
O‘zbekiston	77,5	78,7	97,1	96,8	55,8	49,5
Farg‘ona	74,1	75,0	99,0	99,0	57,8	45,2
Dang‘ara	82,3	82,3	97,4	96,8	56,1	81,0
Furqat	88,7	87,2	98,0	97,7	52,2	100,0
Yozyovon	85,8	85,6	98,2	98,4	100,0	100,0

2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 464,4 mln. AQSh doll.ni yoki umumiy eksport hajmining 68,4 % ni tashkil etdi.






### Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumani – 100,0 %, Furqat tumani – 100,0 %, Yozyovon tumani – 100,0 %, Marg'ilon shahrida – 99,7 %, Oltiariq tumani – 97,1 %, Uchko'prik tumani – 87,3 %, Quvasoy shahrida – 84,8 %, ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Farg'ona tumani – 45,2 %ni tashkil etdi.




2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 1 051,2 mln. AQSh doll.ni yoki umumiy importning 81,3 %ni tashkil etdi.



### Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmat) importining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumanida - 100,0 %, Furqat tumanida - 100,0 %, Yozyovon tumanida - 100,0 % Marg'ilon shahrida - 99,9%, Toshloq tumanida - 99,7 %, Dang'ara tumanida - 98,0 %, Buvayda tumanida - 97,0 %ga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkich Rishton tumanida - 31,6 %ni tashkil etdi.



2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari 18 054,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm**




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahar (2 939,1 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (2 772,7 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (2 254,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (1 628,5 mlrd. so'm) va Qo'shtepa (1 215,5 mlrd. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (121,9 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2023- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 49,2 %ni tashkil etdi.



**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida jami sanoat  
mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo'yicha ulushi, %da**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi So'x tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahari (96,8 %), Dang'ara tumani (79,5 %) Beshariq tumani (71,7 %), va Uchko'prik tumani (68,3 %), hissasiga tegishli. Farg'ona tumanida (28,4 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 24 728,2 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana tovar aylanmasining 92,4 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,5 %ni tashkil qildi.



**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha  
kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana  
savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qo'qon shahri 4 567,9 mlrd.so'm), Marg'ilon shahri (4 081,5 mlrd.so'm), Farg'ona shahri (3 785,4 mlrd.so'm), Uchko'prik tumani (1 555,7 mlrd.so'm), Quva tumani (1 239,4 mlrd.so'm) Buvayda tumani (1 147,1 mlrd.so'm), va Furqat tumani (350,2 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



2023- yil yanvar - dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 7 860,2 mlrd.so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 76,7 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 106,0 %ni tashkil etdi.




### 2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (2 323,6 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (660,1 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (546,1 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (483,5 mlrd. so'm), Toshloq tumani (460,5 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (381,1 mlrd. so'm) hamda Bag'dod tumani (332,8 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.




2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 5 663,6 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 74,7 %ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 116,3 %ga o'sish kuzatildi.






**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha  
kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar  
sohasi hajmi va o'sish sur'ati**





Hududlar bo'yicha eng yuqori xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (1 435,9 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (1 035,0 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (584,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (487,1 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (390,5 mlrd. so'm), Buvayda tumani (225,3 mlrd. so'm), va Farg'ona tumani (193,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2023- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 84,5 %ni tashkil etdi. 2022- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 %ni tashkil qildi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 94,6%ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 %ni tashkil qildi.



2023- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,1 %ni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 101,8 %ni tashkil qildi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,4 %ni tashkil etib, 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,8 %ni tashkil qildi.

